


**BUXORO VILOYATINING
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-avgust*)

2019-yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 832,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 43,5 % ga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 186,0 mln. AQSH dollarga (o`sish sur`ati 57,5 %) va import hajmi 646,2 mln. AQSH dollariga (o`sish sur`ati 40,0 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 460,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

**Buxoro viloyatining
tashqi savdo aylanmasi**

(mln.AQSH.dollari, ulushi %)

yanvar-avgust
2018 yilyanvar-avgust
2019 yil

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar- avgust oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 67,9 mln. AQSH dollarga ko`proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 184,5 mln. AQSH dollariga ko`proqdir.

*dastlabki ma`lumot

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega bo`lgan 20 ta davlat**


(2019 yil yanvar-avgust)

(mln. AQSH dollarri)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Turkmaniston	197,6	4,3	193,3	23,7	2,3 b
Rossiya	179,0	20,0	159,0	21,5	75,9
Xitoy	145,1	24,0	121,1	17,4	177,4
Eron	62,6	38,3	24,3	7,5	100,6
Kopea Respublikasi	38,0	0,4	37,6	4,6	10,5 b
Turkiya	37,9	3,5	34,4	4,6	2,9 b
Afg'oniston	31,9	31,7	0,2	3,8	14,5 b
Qozog'iston	31,8	19,0	12,8	3,8	137,7
Qirg'izston	28,0	27,9	0,1	3,4	10,4 b
Germaniya	20,1	-	20,1	2,4	170,3
Ukraina	8,2	1,8	6,4	1,0	113,9
AQSH	6,9	0,1	6,8	0,8	23,0 b
Belgiya	5,1	-	5,1	0,6	2,3 b
Latviya	4,0	0,1	3,9	0,5	32,8
Litva	3,5	0,3	3,2	0,4	194,4
Belarus	3,2	0,4	2,8	0,4	36,4
Polsha	3,1	1,4	1,7	0,4	3,1
Tojikiston	2,6	2,0	0,6	0,3	2,0 b
Arab amirligi	2,5	0,6	1,9	0,2	-
Niderlandiya	2,0	-	2,0	0,2	10,0 b

2019-yilning yanvar- avgust oylari yakuni bo`yicha tovarlar eksporti bilan shug`ullanuvchi korxonalar soni o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3 taga ko`payib, 144 taga yetdi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi (yanvar- avgust mln. AQSH dollarri)




Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma`lumotlar ko`rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o`siganligini ko`rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-avgust oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o`tgan yillarga nisbatan ko`payib, 186,0 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-avgust oylari tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,2 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,9 % tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi

(yanvar-avgust, mln.AQSH.dollari)

**MDH davlatlari****Boshqa davlatlar**

Boshqa xorijiy davlatlarning, viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-avgust oylari 37,1% ni tashkil qilgan bo`lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 45,7 % ga yetdi. O`tgan yilning mos davriga nisbatan 176,7 % ga o`sdi.

**Buxoro viloyatining
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln. AQSH dollarri)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- avgust	2018-yil yanvar- avgust	2019-yil yanvar- avgust
Turkmaniston	53,7	84,8	197,6
eksport	2,5	1,7	4,3
import	51,2	83,1	193,3
saldo	-48,7	-81,4	-189
Rossiya	279,8	235,9	179,0
eksport	12,5	13,4	20,0
import	267,3	222,5	159,0
saldo	-254,8	-209,1	-139,0
Xitoy	78,8	81,8	145,1
eksport	7,5	19,4	24,0
import	71,3	62,4	121,1
saldo	-63,8	-43,0	-97,1
Eron	38,3	62,2	62,6
eksport	35,6	50,9	38,3
import	2,7	11,3	24,3
saldo	32,9	39,6	14,0
Koreya Respublikasi	2,3	4,2	38,0
eksport	0,2	0,6	0,4
import	2,1	3,6	37,6

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- avgust	2018-yil yanvar- avgust	2019-yil yanvar- avgust
saldo	-1,9	-3,0	-37,2
Turkiya	5,8	13,1	37,9
eksport	2,5	1,1	3,5
import	3,3	12,0	34,4
saldo	-0,8	-10,9	-30,9
Afg'oniston	26,9	21,3	31,9
eksport	26,8	21,2	31,7
import	0,1	0,1	0,2
saldo	26,7	21,1	31,5
Qozog'iston	23,1	23,1	31,8
eksport	19,0	13,9	19,0
import	4,1	9,2	12,8
saldo	14,9	4,7	6,2
Qirg'iziston	0,7	2,7	28,0
eksport	0,6	1,9	27,9
import	0,1	0,8	0,1
saldo	0,5	1,1	27,8
Germaniya	9,9	11,8	20,1
eksport	-	0,1	-
import	9,9	11,7	20,1

(mln. AQSH dollar'i)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- avgust	2018-yil yanvar- avgust	2019-yil yanvar- avgust
saldo	-9,9	-11,6	-20,1
Ukraina	2,2	7,2	8,2
eksport	0,9	0,6	1,8
import	1,3	6,6	6,4
saldo	-0,4	-6,0	-4,6
AQSH	0,1	0,3	6,9
eksport	-	0,1	0,1
import	0,1	0,2	6,8
saldo	-0,1	-0,1	-6,7
Belgiya	0,4	2,2	5,1
eksport	-	-	-
import	0,4	2,2	5,1
saldo	-0,4	-2,2	-5,1
Latviya	4,6	12,2	4,0
eksport	1,0	-	0,1
import	3,6	12,2	3,9
saldo	-2,6	-12,2	-3,8
Litva	0,6	1,8	3,5
eksport	0,3	0,6	0,3
import	0,3	1,2	3,2

(mln. AQSH dollar'i)


Davlat nomi	2017-yil yanvar- avgust	2018-yil yanvar- avgust	2019-yil yanvar- avgust
saldo	-	-0,6	-2,9
Belarus	3,8	8,8	3,2
eksport	0,1	0,2	0,4
import	3,7	8,6	2,8
saldo	-3,6	-8,4	-2,4
Pol'sha	0,6	1,0	3,1
eksport	0,2	0,5	1,4
import	0,4	0,5	1,7
saldo	-0,2	-	-0,3
Tojikiston	0,3	-	2,6
eksport	0,3	-	2,0
import	-	-	0,6
saldo	0,3	-	1,4
Arab amirligi	-	-	2,5
eksport	-	-	0,6
import	-	-	1,9
saldo	-	-	-1,3
Niderlandiya	0,1	0,2	2,0
eksport	-	-	-
import	0,1	0,2	2,0
saldo	-0,1	-	-2,0

EKSPORT

2019-yil yanvar-avgust oyida eksport hajmi 186,0 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 57,5 %) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 93,3 % ulushga ega bo'lib, bular asosan to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (42,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (24,2 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (17,6 %) ni tashkil qiladi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi ulushi

(yanvar-avgust, % da)



2019-yilning yanvar- avgust oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobarga o'sish o`zgarishlari qayd etildi va 2019-yilning yanvar- avgust oyida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmida ayrim turdag'i tovar va xizmatlarda yuqori o'sish sur`atlari qayd etildi.

Eksport tarkibi

(2019-yil yanvar-avgust)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSH dollar'i	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %
Jami	186,0	157,5	100,0	76,4	2,3 b	100,0	109,6	129,0	100,0
Paxta tolasi	45,3	72,5	24,4	-	-	-	45,3	72,5	41,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	45,1	2,6 b	24,2	38,1	2,4 b	49,8	7,0	5,1 b	6,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,7	127,3	0,9	1,5	151,8	2,0	0,1	44,1	0,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	32,8	18,8 b	17,6	2,4	454,8 b	3,2	30,4	17,5	27,7
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,3	3,0 b	0,2	0,3	3,0 b	0,2	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda	2,2	264,4 b	1,2	0,3	41,3 b	0,4	1,9	18781,0 b	1,7
Xizmatlar	12,3	103,7	6,6	6,4	167,3	8,4	5,8	73,2	5,3
Boshqalar	46,4	197,7	24,9	27,4	2,2 b	35,8	19,0	172,6	17,4


Eksport tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH dollar)

Tarkibi	2015-yil yanvar-avgust	2016-yil yanvar-avgust	2017-yil yanvar-avgust	2018-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust
Jami	200,5	166,0	127,9	118,1	186,0
Paxta tolasi	44,8	56,9	42,4	62,5	45,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	7,4	15,9	23,9	17,2	45,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,6	0,9	1,6	1,3	1,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	19,5	35,4	26,7	1,7	32,8
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	10,8	1,2	-	0,1	0,3
Rangli metallar va undai tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-
Mashina va asbob- uskunalar hamda ularning qismlari	-	0,6	0,1	-	2,2
Xizmatlar	62,7	9,3	11,3	11,8	12,3
Boshqalar	54,7	45,8	21,9	23,5	46,4



Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahviliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-avgust oylari mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,9 mln. AQSH dollariga ko`p eksport qilindi va 186,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 12,3 mln. AQSH dollarga yetgan.

**2019 yilda MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi %
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)**



**Viloyat eksportida asosiy hamkor
davlatlarning ulushi , %**


(yanvar-avgust)



Xizmatlar eksporti hajmi 12,3 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari transport xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, %

(yanvar-avgust)




Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-avgust oylarida jami 63,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 33,8 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati -2,4 b). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-avgust oylari 52,4 ming tonna sabzavotlar 18,8 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 mln. AQSH dollaridan ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 11,0 ming tonna meva va rezavorlar 15,0 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


yanvar-avgust



Shuni aytib o'tish joizki, viloyatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-avgust oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 29,8 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 b ga o'sgan). Mustaqillikka erishgan ilk yillarda viloyatimiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom-ashyosi eksport qilingan bo`lsa, hozirda esa tayyor to`qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o`z o`rnini egallab kelmoqda.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-avgust oyida import hajmi 646,2 mln. AQSH dollariga (o'sish sur`ati 39,9 % ga) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbaalari (48,9 %), mashina uskulalari(26,6 %),kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,3%) hamda qora va rangli metallar (1,5 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.



Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-avgust oylari mobaynida viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 88,6 mln. AQSH dollarga ko`p import qilindi va 646,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Import tarkibi

(2019-yil yanvar-avgust)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyyatiga nisbatan, %
Import	646,2	139,9	100,0	375,1	113,2	100,0	271,1	2,1 b	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	11,6	175,8	1,8	10,2	2,4 b	2,7	1,4	60,4	0,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	34,1	131,8	5,3	9,5	2,0 b	2,5	24,7	116,4	9,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	316,3	116,1	48,9	315,9	116,0	84,2	0,4	10,5 b	0,2
Qora metallar	9,3	86,1	1,4	5,9	60,2	1,6	3,3	3,3 b	1,2
Rangli metallar	0,3	3,0 b	-	0,2	-	0,1	0,1	100,0	-
Mashina va asbob-uskunalar	171,6	176,6	26,6	12,0	56,5	3,2	159,6	2,1 b	58,9
Xizmatlar	0,4	124,7	0,1	-	-	-	0,4	124,7	0,2
Boshqalar	102,5	2,1 b	15,9	21,4	113,7	5,7	81,1	2,8 b	29,9

Import tarkibi dinamikasi

(mln. AQSH dollar)

Tarkib	2015-yil yanvar-avgust	2016-yil yanvar-avgust	2017-yil yanvar-avgust	2018-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar - avgust
Jami	444,1	304,3	435,6	461,7	646,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	15,0	1,3	4,7	6,6	11,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	18,0	12,4	13,4	25,9	34,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	332,3	245,5	305,2	272,4	316,3
Qora metallar	8,5	3,8	4,5	10,8	9,3
Rangli metallar	-	-	-	0,1	0,3
Mashina va asbob- uskunalar	43,4	27,5	93,7	97,2	171,6
Xizmatlar	8,2	0,5	0,4	0,4	0,4
Boshqalar	18,7	13,2	13,7	48,3	102,5


Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-avgust oylari mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,9 mln. AQSH dollariga kop import qilindi va 646,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,4 mln. AQSH dollarga yetgan.

**Buxoro viloyatida
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi
(yanvar-avgust)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollarari		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Turkmaniston	83,1	193,3	162,3	2,3 b	2	1
Rossiya	222,5	159,0	83,3	71,5	1	2
Xitoy	62,4	121,1	87,5	194,1	3	3
Kopea Respublikasi	3,6	37,6	171,4	10,4 b	11	4
Turkiya	12,0	34,4	3,6 b	2,9 b	5	5
Eron	11,3	24,3	4,2 b	2,1 b	7	6
Germaniya	11,7	20,1	118,2	171,8	6	7
Qozog'iston	9,2	12,8	2,2 b	139,1	8	8
AQSH	0,2	6,8	2,0 b	34,0 b	15	9
Ukraina	6,6	6,3	5,1 b	95,4	10	10
Belgiya	2,2	5,1	5,5 b	2,3 b	13	11
Latviya	12,2	3,9	3,4 b	32,0	4	12
Litva	1,2	3,2	4,0 b	2,7 b	14	13
Belarus	8,6	2,8	2,3 b	32,6 b	9	14
Niderlandiya	0,2	2,0	2,0 b	10,0 b	18	15
Arab amirligi	-	1,9	-	-	19	16
Polsha	0,5	1,7	125,0	3,4 b	16	17
Pokiston	2,6	1,1	-	42,3	12	18
Fransiya	0,4	0,9	4,0 b	2,3 b	17	1



**MDH va Boshqa xorijiy davlatlarning tovar
va xizmatlar importidagi hajmi**
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri)

(mln. AQSH dollarri)



**Viloyat importida asosiy hamkor
davlatlarning ulushi , %**

(yanvar-avgust)



2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 62 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 296,8 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 45,9 %ini tashkil qiladi.

Qurilish materiallari importi tarkibi

2019-yilning yanvar-avgust oylarida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga viloyatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida 296,8 mln. AQSH dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan 189,2 % ga o`sib, umumiy import hajmining 45,9 %ini tashkil qildi. Import qilingan Qurilish materiallari tarkibidan Sement (3,5 %), Yog`och va yog`och mahsulotlari (3,7 %), hamda shisha va shisha buyumlar (0,2 %) asosiy ulushni egallagan.

Qurilish materiallari importi tarkibi (2019 yil yanvar-avgust holatiga)

SEMENT

10,5mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 3,6 barobarga ga oshgan.

YOG`OCH VA YOG`OCH MAHSULOTLARI

8,2 mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 74,5 foizga oshgan.

SHISHA VA SHISHA BUYUMLAR

0,5 mln.AQSH dollarlik mahsulot import qilingan. O`tgan yilga nisbatan 2,5 barobarga oshgan.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallahslari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-83-22**